

Birdamlik dunyo mamlakatlariga koronavirus inqirozining salbiy oqibatlarini yengishga yordam beradi



16-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamkorligida "Pandemiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlariga ta'siri: dastlabki saboqlar, korona inqirozi va o'zgarish istiqbollari" mavzuida tashkil etilgan ikki kunlik xalqaro ilmiy-amaliy videokonferensiya boshlandi.

Forum O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Malayziya, Turkiya, Pokiston, Ozarbayjon va boshqa davlatlarining yetakchi ekspertlari, parlamentariylari, ilmiy-tadqiqot markazlari rahbarlarini bir joyga to'pladi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o'rinbosari Akromjon Ne'matov favqulodda holatlarda ko'p tomonlama hamkorlik va xalqaro tashkilotlarning roli haqidagi ma'ruza bilan chiqish qildi.

U o'z chiqishida xalqaro hamjamiyat oldida turgan qator global vazifalar, shuningdek Markaziy Osiyoga oid jarayonlarga to'xtalib o'tdi.

Ekspert pandemiya sharoitida keng xalqaro hamkorlikni to'xtatib turgan asosiy muammolar qatorida proteksion kayfiyatning o'sishi, kelishmovchiliklar, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi raqobatning kuchayib borishini ta'kidladi. A.Ne'matovning fikricha, bunday tendensiyalar bu kabi chaqiriqlarni hal qilish va dunyo hamjamiyati barcha a'zolarining manfaatlarini himoya qilish uchun tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, munozara qatnashchilarining e'tibori xalqaro tashkilotlarda konstruktiv muloqotni qo'llab-quvvatlash va ishonchni mustahkamlash zarurligiga qaratildi. Ekspertning fikricha, bu elementlarsiz yagona yondashuvlarni qurish va insoniyat oldida turgan chaqiriq va tahdidlarga muvofiqlashtirilgan javob berish imkonsizdir.

"Global muammolar global javoblarni talab qiladi" - dedi Ne'matov. "Dunyo mamlakatlari faqatgina birdamlikni mustahkamlash orqali ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirgandagina, koronavirus inqirozining salbiy oqibatlarini yengib o'tishlari mumkin".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o'rinbosarining so'zlariga ko'ra, O'zbekiston - globallashtirish jarayonlarini rivojlantirish va teng

huquqli xalqaro hamkorlik tarafdoridir.

Mamlakatimiz barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida qulay tashqi sharoitlar yaratish maqsadida xalqaro aloqalarning barcha subyektlari bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni saqlab turadi.

Shu bois, mintaq va butun dunyodagi hamkor mamlakatlar bilan siyosiy darajadagi o'zaro hamkorlik va ishonchni mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining konseptual asoslarini shakllantirishning hal qiluvchi omillariga aylandi.

Bunday yondashuv samarasida, mamlakatimiz o'zaro munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi, BMT, SHHT, MDH, IHT, YEXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida konstruktiv faoliyatini kengaytirdi, eng muhimi, MO mintaqasida tub o'zgarishlarga erishdi.

Respublikamizning MO mintaqasida to'planib qolgan muammolarni manfaatlarni hisobga olgan holda, izchil muloqot va kelishuvlar asosida tartibga solishga intilishi mintaqada do'stlik, ishonch va o'zaro manfaatli hamkorlikning yangicha muhitini yaratdi.

Ne'matovning so'zlariga ko'ra, mintaqadagi o'zaro munosabatlarning bunday o'zgarishi xalqaro hamjamiyat tomonida e'tirof etilib, qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ekspert misol tariqasida BMT ning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha Mintaqaviy markazi boshlig'i Natali Germanning so'zlarini keltirib o'tdi: "Jiddiy qiyinchiliklar davrida Markaziy Osiyoda birdamlik, hamjihatlik va ishni yaxshi yo'lga qo'yishlik namunasi o'rganishga va taqlid qilishga loyiqdir va u kelajakda shu kabi va murakkab vaziyatlarda barqaror javob qaytarish uchun xalqaro me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlanishi kerak".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o'rinbosari chiqishi yakunida O'zbekistonning pragmatizm, mintaqaviy yakdillikni qo'llab-quvvatlash va keskin masalalarni tezkor hal etishga yo'naltirilgan faol tashqi siyosati mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlariga qo'shgan munosib hissasi ekanini qayd etdi.

Konferensiya o'z ishini davom ettirmoqda, yalpi majlislardan tashqari, seksiya muhokamalari o'tkazilishi ham ko'zda tutilgan. Ularda ishtirokchilar keng doiradagi masalalar, jumladan korona inqirozini yengib o'tish va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini yumshatish bo'yicha choralarni muvofiqlashtirish uchun xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash yo'llariga to'xtalib o'tadilar. Konferensiya yakunlari Markaziy Osiyo va O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatidagi yangi rolini anglash uchun konseptual asosni shakllantirishga qaratilgan.

Manba